



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> July, 2025

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI AHOI DAROMADLARIGA TA'SIRI NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA

Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li

Assistant, Namangan Institute of Engineering and Technology

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy omillari va tahliliy ma'lumotlar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiyalar, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, kichik biznes, oilaviy biznes.

### **Abstract:**

This article discusses the economic factors and analytical data of increasing the income of the population in the development of entrepreneurship in the development of the economy of our country.

**Keywords:** foreign investments, entrepreneurship, economic development, economic growth, small business, family business.

### **Аннотация:**

В данной статье рассматриваются экономические факторы и аналитические данные увеличения доходов населения в развитии предпринимательства в развитии экономики нашей страны.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, предпринимательство, экономическое развитие, экономический рост, малый бизнес, семейный бизнес.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> July, 2025

Xususiy tadbirkorlik - xo‘jalik yuritishning shunday huquqiy shakli, unda mulk egasi bitta shaxs yoki oila bo’ladi va faoliyatdan kelgan daromadni (turli to’lov va soliqlar to’langanidan keyin) hammasiga egalik qiladi, qolaversa biznesdagi xavf-xatar va tavakkalchilik uchun yakka o‘zi javob beradi. Tadbirkorlikning ushbu shakli chakana savdoda, umumiy ovqatlanish va maslahat sohasidagi biznesda, maishiy xizmatda, fermerlikda, tibbiyot amaliyotida va hunarmandchilikda ko‘proq uchraydi. Xususiy tadbirkorlik shakllari, yuridik shaxs tashkil qilmasdan; mustaqil ravishda, ishchilami yollash huquqisiz; tadbirkorga tegishli mulk asosida yuritiladi. Xususiy tadbirkorlikning hozirgi kundagi ommaviy shaklidan biri xalq iste’mol tovarlarini importi va savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil qilmay eksport-import operatsiyalarini, ulgurji va chakana savdoni amalga oshiruvchilar sifatida ro‘yxatdan o‘tadila.

Xususiy tadbirkorlikning afzalliklari: birinchidan, xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ruxsat olish xo‘jalik shirkatlariga nisbatan soddalashtirilgan, ya’ni xususiy tadbirkor davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyin, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritishi mumkin. Bunda xususiy tadbirkor bankda hisob raqami ochishi va o‘z hamkorlari bilan naqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshirishi mumkin. Ikkinchidan, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qo’llaniladi. Bundan tashqari, to’la mustaqillik harakatdagi erkinlik va tezkorlik, barcha foyda faqat mulkning yolg’iz egasiga kelib tushadi va u ko‘proq ishlashga raqobatlantiradi Xususiy tadbirkorlikning kamchiliklari:

kreditlash imkoniyatlaring cheklanganligi,  
zaif moliyaviy poydevorga egaligi,  
barcha xo‘jalik faoliyati uchun o’zining bor mulki bilan javobgarligi; f  
aoliyatni kengaytirish imkoniyatlarini cheklanganligi.

Ushbu kamchiliklami bartaraf etish niyatida ishbilarmonlar mol-mulki, kasb yoki kapitallarini qo’shib birlashadilar.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagи ulushi 50,5 % ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,9 birlikni tashkil qildi. 2022- yilda 49,8 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 foizga kam demakdir.




# E CONF SERIES




**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> July, 2025



**1-chizma 2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da<sup>1</sup>**



**2-chizma Kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> O'zbekiston statistika boshqarmasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz) <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50040-o-zbekiston-respublikasida-kichik-tadbirkorlik-2023-yil-yanvar-dekabr-2>

<sup>2</sup> O'zbekiston statistika boshqarmasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz) <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50040-o-zbekiston-respublikasida-kichik-tadbirkorlik-2023-yil-yanvar-dekabr-2>



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> July, 2025

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022 yilning 1 aprel holatiga 21836 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2021 yilning shu davriga nisbatan 110,8 foizga ko‘pdir). (Jizzax viloyati) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llabquvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023-yil holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 35 351 tani tashkil qildi. (2022-yilga nisbatan 110,8 % ga ko‘pdir).

## Namangan viloyatining 2023- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati<sup>3</sup> 1-jadval

Namangan V	2022- yil	2023- yil
Viloyat bo‘yicha jami	2 890	2 464
Namangan shahar	912	659
Mingbuloq	83	192
Kosonsoy	163	165
Namangan	153	101
Norin	198	138
Pop	133	186
To‘raqo‘rg‘on	173	191
Uychi	182	162
Uchqo‘rg‘on	254	209
Chortoq	221	181
Chust	235	141
Yangiqo‘rg‘on	183	139

2023-yil yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Namangan shahrida – 659 ta, Uchqo‘rg‘on tumanida – 209 ta, Mingbuloq tumanida – 192 ta, Pop tumani – 186 ta, Chortoq tumanida – 181 ta, Kosonsoy

<sup>3</sup> Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27<sup>th</sup> July, 2025

tumani – 165 ta, Uychi tumani – 162 ta, To‘raqo‘rg‘on, Chust, Norin tumanlarida bu ko‘rsatkich o‘rta darajani tashkil etgan. Eng past ko‘rsatkich Namangan tumanida 101 tani tashkil etdi.

**2023- yil kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari  
 bo‘yicha ulushi, (%da<sup>4</sup>)**  
**2-jadval**

Namangan	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
Viloyat bo‘yicha jami	47,6	92,6	65,0	70,4
Namangan shahar	61,0	91,8	44,1	68,8
Mingbuloq	29,8	100,0	83,4	35,0
Kosonsoy	46,7	80,2	80,7	47,3
Namangan tuman	74,2	100,0	80,4	91,5
Norin	85,0	100,0	81,7	92,1
Pop	75,4	71,2	70,6	83,0
To‘raqo‘rg‘on	9,7	91,5	73,2	51,5
Uychi	65,1	88,8	82,1	92,4
Uchqo‘rg‘on	27,8	100,0	78,3	90,2
Chortoq	100,0	100,0	79,3	93,1
Chust	29,9	100,0	77,4	68,1
Yangiqo‘rg‘on	100,0	100,0	84,4	95,6

Hududlar bo‘yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo‘rg‘on tumanlari (100,0 %) hamda Norin (85,0 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** –Mingbuloq, Namangan t, Norin, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on, 100, % Namangan sh, 91,8 %, To‘raqo‘rg‘on, t 91,5 % tashkil etdi.

<sup>4</sup> Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> July, 2025

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo‘rg‘on (95,6 %), Mingbuloq (83,4 %), Uychi (82,1 %), Norin (81,7 %), Kosonsov (80,7 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Yangiqo‘rg‘on (95,6 %), Chortoq (93,1 %), Norin (92,1 %) Namangan t (91,5 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahri va Uychi, Namangan, Pop, Chust, Kosonsov, Chortoq tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalar esa Mingbuloq, Norin, Uchqo‘rg‘on va Yangiq‘org‘on tumanlari hissalariga tog‘ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## **Namangan viloyatida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi<sup>5</sup>**

### 3-jadval

Nº	Hududlar	Soni	Ulushi
1	Namangan sh	45	43,8
2	Mingbuloq t	1	1,0
3	Kosonsov t	6	5,8
4	Namangan t	7	6,8
5	Norin t	3	2,9
6	Pop t	7	6,8
7	To‘raqo‘rg‘on t	6	5,8
8	Uychi t	9	8,7
9	Uchqo‘g‘on t	3	2,9
10	Chortoq t	6	5,8
11	Chust t	7	6,8
12	Yangiqo‘rg‘on t	3	2,9
<b>Jami</b>		<b>103</b>	<b>100</b>

Viloyatida 2018 yilning o‘zida 17 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo‘lib, shulardan asosiy qismi Namangan shahri 7 ta, Kosonsov 2ta, Pop 3 ta, To‘raqo‘rg‘on 2 ta tumanlarida tashkil etilgan. Shuningdek, Uychi, Uchqo‘rg‘on

<sup>5</sup> O‘zbekiston statistika boshqarmasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> July, 2025

hamda Yangiqo‘rg‘on tumanlarida ham bittadan shunday korxonalar tashkil etilgan. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarish jarayonlarida aholi daromadlarini oshirishda zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish, jahon talablari va standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini yangilash hamda kengaytirish, ularning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishda mablag’lar jalb etishda yuzaga keladigan muammolarni o’rganish milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga o’zining ijobiyligi ta’sirini ko’rsatadi

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Botirjon o’g’li, M. B., & Hasanboy o’g’li, S. D. (2022). ORGANIZATION AND INCREASE OF ACTIVITY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.
2. Adashaliyevich, B. M., & O'g'li, I. M. (2022). Promoting sustainable development of small business. Asian Journal of Research in Business Economics and Management, 12(4), 5-9.
3. Мухитдинов, Ш. З. (2021). ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ХАТАРЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 939-943.